

Jizzakh State Pedagogical Institute



***Journal of Preschool
Education***

***The faculty of pre-school
education***

***O`yinlar yordamida maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili o`rgatish**

Xudoysukurova Mamura

Xolbo`tayeva Maqsadxon

JDPU talabalari

Anotatsiya: Ushbu maqola maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tili mashg`ulotlarini ularning yosh xususiyatlari va bilim darajasini inobatga olgan holda o`yinlar yordamida o`tkazish usullari yoritilgan.

Kalit so`zlar: MTT, Ingliz tili,yosh xususiyatlari,innovatsion o`yinlar,maktabgacha yoshdagi bolalar

Hozirgi kunda Oliy ta`lim muassasalari,litsey va maktablar balki Maktabgacha ta`lim tashkilotlari(MTT)da ingliz tili darslari uzlusiz tarzda o`tilishi joriy etilgan va bu amalga oshirilmoqda.Mamlakatimizda chet tillarini o`rganishga bo`lgan e`tibor ayniqsa, Prezidentimiz Islom Karimovning 2012-yil 10-dekabrdagi „Chet tillarini o`rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risidagi qarori qabul qilingandan keyin yanada kuchaydi.Ingliz tilini o`rganish hozirgi kunda zamon talabi hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o`rgatishning asosiy muammosi ularning diqqatining pastligidir. Shu sababli maktabgacha ta`lim tashkilotlarida ingliz tili mashg`ulotlarini tashkil etishda bolalarning diqqatini jalb qiluvchi interfaol o`yinlardan o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ushinskiyning ta`kidlashicha,chet tilida so`zlashishni yosh bola kattalarga o`xshab yillar davomida emas,balki bir necha oylarida yaxshiroq o`rganib oladi. Vigotskiyning fikriga ko`ra, bolalar ona tilidan o`z-o`zidan,beixtiyor o`rganishni boshlashadi,chet tillarini esa ongli ravishda qabul qilishadi.Shuning uchun ham til o`rganish ko`nikmalari bolalarda quyidagicha shakllanadi:ona tili-pastdan tepaga qarab, chet tili esa-yuqoridan pastga qarab rivojlanadi.

Taboo words o'yini (Ta'qiqlangan so'zlar) - bu qiziqarli o'yin o'quvchilarga sinonim so'zlar va ularning ta`riflarini qo'llashda yordam beradi. Sinonimlardan foydalanish nutqning ravonligi, so'zlashuvning chiroyli bo'lishini ta'minlaydi. Ayniqsa ingliz tili fanida so'z qo'llash bilan bog'liq xatolikga yo'l qo'ymaslik kerak, chunki ingliz tilidagi ko'plab bir xil ma'noni anglatuvchi so'zlar, gap mazmuniga ko'ra foydalaniladi. Aynan ushbu o'yin shu jihatda ehtiyyotkor bo'lishga yordam beradi. Bunda guruhlar tashkil qilinadi, ya'ni o'quvchilar qarama-qarshi holda o'tiradilar. Har bir jamoa o'z jamoasidan bir kishini ro'parasidagi stulga o'tirishi uchun tanlaydi. O'qituvchi esa o'quvchilar ortiga o'tib katta qog'ozda yozilgan so'z ushlab turadi. O'rindiqda o'tirgan o'quvchilar bu so'zni ko'ra olmasligi kerak bo'ladi. Jamoaning o'rindiqda o'tirgan a'zosiga o'qituvchi ushlab turgan so'zni ayttirish uchun biroz vaqt bo'ladi.

Tennis o'yini - bu o'yining maqsadi o'quvchilarning tezligini oshirishdir. Bu o'yin zanjir o'yiniga o'xshaydi va tanlangan mavzu doirasida bo'lib o'tadi. Bunda aytilgan so'zning so'nggi harfiga yangi so'z aytishi kerak, masalan mavzu nomi „Animals“ bo'lsa, mavzudan chetlashmagan holda „Tiger“ so'zi bilan boshlansa, ikkinchi ishtirokchi „rabbit“ deb davom ettiradi. Shu tariqa o'yin davom etadi. O'yin davomida to'xtab qolgan o'quvchi 5 daqiqa davomida javob bera olmasa o'yindan chetlashtiriladi va qolgan o'quvchilar bilan davom ettiriladi. O'yinni sinf bilan ya'ni ko'pchilik bilan o'ynash juda qiziqarli va maroqli bo'ladi. Bu o'yinni mavzuni o'zgartirish orqali ham o'ynash mumkin. Shu bilan birga, o'yinlarni tashkil etish jarayonida, ularni turli texnik vositalar bilan bog'lab o'tish ham qiziqishni oshirishga xizmat qiladi. Chunki bugungi tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan zamonda barcha yoshlar, o'smirlar va kattalar ham zamonaviy texnologiyalarga befarq emas. Shunday ekan, qiziqarli fan o'yinlari kompyuterlarda tashkil qilinishi orqali samarali natijaga erishish mumkin.

Back to back-bu o`yin bola xotirasini charxlaydi va eshitish qobiliyatini o`stiradi. Stolga rang-barang rasmlarni chap tomoni bilan qoyib chiqamiz. Ikkita bolani

doskaga chiqaramiz va ularning birovidan rasmlarni tanlab olishini so`raymiz. Ikkinchi o`quvchiga ko`rsatmasdan, bolalarni ikkita bir-biriga teskari stulga o`tiradilar. Rasmni ushlab turgan bola topishmoq usulida unda nima tasvirlanganini aytadi va ikkinchi bola eshitgan bola so`zlarni qog`ozga tushiradi. Eshitganlarini yaqqol va aniq tushirsa bola g`olib bo`ladi.

Shuni ta`kidlab o`tish joizki, yuqoridagi keltirilgan o`yinlar yordamida maktabgacha ta`lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilar bilan tashkil etilgan ingliz tili mashg`ulotlarida foydalanilganda, ularning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o`zgartirish mumkin. Shuningdek professor N.A. Bonkning fikricha, yosh bolaga xorijiy tilni o`rgatishda ularning psixologiyasini hisobga olish zarur, chunki yosh o`rganuvchi qiziqqon bo`ladi va zerikishni yoqtirmaydi. Shuni inobatga olgan holda bog`cha bolalari uchun interfaol o`yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Maktabgacha yoshdagi bolalarga til o`rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg`ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'qitamiz, o'zlashtiramiz - biz ingliz tilini bilishni xohlaymiz. - Rostov n / a: Feniks, 2009 y.
2. Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun ingliz tili. - M.: VAKO, 2008 yil.
3. Ivanova M.V. Bolalar uchun ingliz tili. - M.: AST: Astrel, 2009 y.
4. Voxidov M. Bolalar psixologiyasi .-O'qtuvchi , 1981 – 366 b
5. Daminova M. Adambekova T. O'yin mashg`ulotlari. –T.; O'qituvchi , 1993-96 b.
6. Palmer H. Saientific study and teaching of languages.-London, 1922. 243b

Maktabgacha ta'lim jurnali: <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/index>

7. David A. j, Eggen , P Kauchak . Methods for Teaching ;